

va noqulay ob-havoda kitob do‘konlari ishlamaydi;

Ziyoratgohni rivojlantirish bo‘yicha takliflar quyidagilardan iborat:

- ziyoratgoh infratuzilmasini takomillashtirish;
- ziyoratgohda kichik kitob do‘konini tashkil qilish;
- ziyoratgohda kichik ovqatlanish shahobchasi va sayyohlar uchun o‘rindiqlar tashkil qilish;
- ziyoratgohda yuqorida ko‘rsatilgan veb-sayit va ilovani ishga tushirish.

Surxondaryo viloyati ziyorat turizmi bo‘yicha katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Uni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi: turizm infratuzilmasini rivojlantirish xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish xalqaro reklama va marketing ishlarini kuchaytirish mahalliy aholini turizmga jalb qilish raqamli texnologiyalar asosida turizmni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net>. Volume-29, December -2023 ISSN: 2749-3601
2. Koriyev, Mirzohid. (2023). Possibilities of Pilgrimage Tourism Development in Uzbekistan P. 126-134. 10.5281/zenodo. 7585454.
3. Djafarova Nigina Alisherovna, Abdurakhimova Sevara Tulkin Kizi Prospects for the development of pilgrimage tourism in Uzbekistan // Наука, техника и образование. 2020. – №3. – (67). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prospects-for-the-development-of-pilgrimage-tourism-in-uzbekistan/> (дата обращения: 14.04.2024).
4. Gulyamova G. (2023). Development of pilgrimage tourism cluster in Uzbekistan: opportunities and challenges. Economics and Education. – 24. – P. 427-432. 10.55439/ECED/vol24_iss3/a68.

Baxodir ESONBOYEV,

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

MILLIY TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MONITORING VA BAHOLASH INDIKATORLARINING ROLI

Annotatsiya. Maqolada milliy turizm industriyasini rivojlantirish jarayonida monitoring va baholash indikatorlarining nazariy asoslari, xalqaro standartlar turlari, roli hamda O‘zbekiston Respublikasidagi amaliy holati chuqur va keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta’sirlarini o‘lchash uchun tavsiya etilgan indikatorlar tizimi batafsil ko‘rib chiqilib, monitoring doimiy kuzatuv va ma’lumotlar bazasini shakllantirishni, baholash esa natijalarni ilmiy tahlil qilish, samaradorlikni baholash va strategik qarorlar qabul qilishni ta’minlashini ko‘rsatadi. O‘zbekiston turizmining 2025-yildagi rekord o‘shishi, Milliy statistika qo‘mitasi, UN Tourism va WTTC ma’lumotlari asosida statistik jadvallar, dinamik tahlillar va qo‘shimcha ko‘rsatkichlar bilan boyitilgan. Mavjud yutuqlar bilan birga kamchiliklar chuqur baholanadi. Xalqaro tajribaga asoslanib, milliy turizm monitoring markazini tashkil etish, yagona

raqamli platforma yaratish, big data va AI dan foydalanish, mintaqaviy observatoriyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm industriyasi, monitoring va baholash, barqaror turizm indikatorlari, iqtisodiy indikatorlar, ijtimoiy indikatorlar, ekologik indikatorlar, raqamli monitoring, turistlar taqsimoti.

Аннотация. В данной статье подробно и всесторонне анализируются теоретические основы индикаторов мониторинга и оценки в процессе развития национальной туристической индустрии, виды международных стандартов, их роль, а также практическое состояние в Республике Узбекистан. Детально рассматривается система индикаторов, рекомендованных для измерения экономического, социального и экологического воздействия туризма; при этом подчеркивается, что мониторинг обеспечивает непрерывное наблюдение и формирование базы данных, а оценка – научный анализ результатов, оценку эффективности и принятие стратегических решений. Статистические данные о рекордном росте туризма в Узбекистане в 2025 году, основанные на материалах Национального комитета по статистике, UN Tourism и WTTC, дополнены статистическими таблицами, динамическим анализом и дополнительными показателями. Наряду с достигнутыми успехами проводится глубокая оценка существующих недостатков. На основе международного опыта разработаны практические и научно обоснованные предложения по созданию национального центра мониторинга туризма, формированию единой цифровой платформы, использованию технологий big data и искусственного интеллекта, а также развитию региональных туристических обсерваторий.

Ключевые слова: туристическая индустрия, мониторинг и оценка, индикаторы устойчивого туризма, экономические индикаторы, социальные индикаторы, экологические индикаторы, цифровой мониторинг, распределение туристов.

Abstract. The article provides a comprehensive and in-depth analysis of the theoretical foundations, types of international standards, role, and practical situation in the Republic of Uzbekistan regarding monitoring and evaluation indicators in the process of developing the national tourism industry. The system of recommended indicators for measuring the economic, social, and environmental impacts of tourism is examined in detail. It shows that monitoring ensures continuous observation and the formation of a data base, while evaluation provides scientific analysis of results, assessment of effectiveness, and support for strategic decision-making. Uzbekistan's tourism record growth in 2025, enriched with statistical tables, dynamic analyses, and additional indicators based on data from the National Statistics Committee, UN Tourism, and WTTC. Existing achievements are highlighted alongside shortcomings, which are deeply assessed. Based on international experience, practical and scientifically grounded recommendations have been developed for establishing a national tourism monitoring center, creating a unified digital platform, utilizing big data and AI, and developing regional observatories.

Keywords: tourism industry, monitoring and evaluation, sustainable tourism indicators, economic indicators, social indicators, environmental indicators, digital monitoring, tourist distribution.

Zamonaviy global iqtisodiyotda turizm industriyasi eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, valyuta tushumlari, ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va madaniy almashinuv orqali keng ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi uchun turizm "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boy tarixiy-madaniy meros, noyob tabiat va mehmondo'stlik mamlakatni Markaziy Osiyoning yetakchi turizm markaziga aylantirmoqda.

2025-yilda O'zbekiston turizmi rekord natijalarga erishdi. Milliy statistika

qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatga 11,7 million xorijiy fuqaro turistik maqsadlarda tashrif buyurdi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 3,7 million nafar ya‘ni 46,8% ga oshgan. Yanvar-noyabr oylarida esa 10,7 million turist qayd etilib, bu birinchi marta 10 millionlik chegaradan oshgan tarixiy rekord bo‘ldi. Turizm xizmatlari eksporti 4,4 milliard dollardan oshib, ba‘zi manbalarda 4,7-4,8 milliard dollarga yetgan. UN Tourism ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2025-yilda jahonning eng tez o‘sovchi yetti turizm yo‘nalishi qatoriga kirdi; yanvar-sentabr oylarida keluvchilar soni 2019-yilga nisbatan 73% ga oshgan.

Eng ko‘p turistlar qo‘shni davlatlardan kelgan: Qirg‘iziston – 3,3 mln, Tojikiston va Qozog‘iston – har biri 2,7 mln, Rossiya – 984 ming, Afg‘oniston – 476 ming, Turkmaniston – 370 ming, Xitoy – 278 ming va boshqalar. Aprel oyidan boshlab har oy 1 milliondan ortiq turist qabul qilingan. Shu bilan birga, ichki turizm ham rivojlanib, o‘zbekistonliklarning xorijga sayohatlari 7,6 milliontaga yetgan.

Ushbu jadal o‘shish ijobiy bo‘lsa-da, ortiqcha yuklama, ekologik bosim, mavsumiylik va bir turistga o‘rtacha sarf-xarajatning pastligi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, turizm siyosatini samarali boshqarishda monitoring va baholash indikatorlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Indikatorlar yordamida siyosatning haqiqiy ta‘sirini o‘lchash, muammolarni erta aniqlash va resurslarni optimal taqsimlash mumkin.

Monitoring – bu turizm rivojlanish dasturlari va loyihalarining bajarilishini muntazam kuzatish, ishonchli ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va o‘zgarishlarni real vaqt rejimida qayd etish jarayonidir. Baholash esa yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida outputs va outcomes ni tahlil qilish, samaradorlik, samaralilik, barqarorlik va ijtimoiy adolatni baholash hamda kelgusidagi qarorlar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Indikatorlar – muayyan jarayon yoki hodisaning holatini aniq ifodalovchi o‘lchov vositalari. Ular quantitative va qualitative bo‘lishi mumkin. UN Tourismning “Turizm yo‘nalishlari uchun barqaror rivojlanish indikatorlari” qo‘llanmasi indikatorlarni quyidagi vazifalar bilan bog‘laydi: qaror qabul qilishni yaxshilash, xatarlarni kamaytirish, muammolarni erta aniqlash, hisobdorlikni oshirish va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish.

GSTC (Global Sustainable Tourism Council) Destination Criteria bo‘yicha barqaror turizmning to‘rt asosiy ustuni mavjud:

1. Barqaror boshqaruv (sustainable management);
2. Ijtimoiy-iqtisodiy foyda (socio-economic sustainability);
3. Madaniy merosni saqlash (cultural sustainability);
4. Ekologik barqarorlik (environmental sustainability).

WTTC esa iqtisodiy ta‘sirni (GDP contribution, employment) chuqur tahlil qiladi. Indikatorlarning samaradorligi quyidagi mezonlarga bog‘liq: dolzarblik, ishonchlilik, ma‘lumot olish qulayligi, taqqoslanish imkoniyati va siyosiy qarorlar bilan bog‘liqligi.

Iqtisodiy indikatorlar. Bu guruh turizmning makroiqtisodiy ta‘sirini o‘lchaydi. Asosiy ko‘rsatkichlar:

- Tourism Direct GDP (to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissasi);
- Total Contribution to GDP (umumiy ta‘sir);

- multiplier effekti hisobga olingan);
- turistlar soni va o‘rtacha sarf-xarajatlari (revenue per visitor);
- valyuta tushumlari;
- ish o‘rinlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va indirekt);
- mavsumiylik indeksi;
- leakage (daromadning mamlakatdan chiqib ketishi) darajasi.

1-jadval

O‘zbekiston turizmining iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Yil	Xorijiy turistlar soni (mln.)	Turizm daromadi (mlrd. AQSH dollari)	Bir turistga o‘rtacha sarf-xarajat (AQSH dollar)	Turizmning YaIM dagi ulushi (%)
2023	6,63	2,17	327	5-6
2024	7,96-10,2	3,20-3,52	403	6-8
2025	11,7	4,7	400	8-10

Ushbu jadval Milliy statistika qo‘mitasi, UN Tourism, WTTC va ochiq manbalar asosida tuzilgan. 2025-yilda bir turistga o‘rtacha sarf-xarajatning pastligi sifatli turizmga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy indikatorlar. Turizmning mahalliy jamiyatga ta‘sirini baholaydi:

- mahalliy aholi qoniqishi darajasi (so‘rovlar orqali, masalan;
- Likert shkala bo‘yicha);
- tourist-to-local ratio (turist va mahalliy aholi nisbati, Samarqand va Buxoroda yuqori bo‘lishi mumkin);
- gender va yosh tengligi (ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari ulushi);
- madaniy meros obyektlarining saqlanish darajasi;
- jamoatchilik ishtiroki darajasi;
- turistlar qoniqishi indeksi (NPS – Net Promoter Score).

2-jadval

GSTC va UN Tourism bo‘yicha tavsiya etilgan asosiy indikatorlar namunasi

Indikator turi	Asosiy ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	O‘zbekiston uchun ahamiyati
Iqtisodiy	Turistlar soni, daromad, YaIM ulushi, daromadning chiqib ketishi darajasi	mln. odam / mln. AQSH doll. / %	O‘shish yuqori, ammo daromadning chiqib ketishi xavfi va mavsumiylik yuqori
Ijtimoiy	Aholi qoniqishi, turistlar sonining mahalliy aholiga nisbati, gender ulushi	% / nisbati	Mahalliy jamiyat qoniqishi monitoringi zaif
Ekologik	Suv sarfi, chiqindilar, uglerod izi	litr/odam / tonna / CO ₂ tonna	Tarixiy shaharlarda va tog‘ hududlarida yuklama yuqori

Ekologik indikatorlar. Atrof-muhitga ta‘sirni o‘lchaydi:

- bir turistga suv va energiya sarfi;
- chiqindilar miqdori va qayta ishlash foizi;
- “carbon footprint” (issiqxona gazlari emissiyasi);
- tabiatni muhofaza qilish hududlaridagi yuklama indeksi;

– biologik xilma-xillik o‘zgarishi.

Indikatorlar quyidagi strategik rollarni bajaradi:

– ilmiy asoslangan rejalashtirish – Maqsadlar ya’ni 2030-yilga qadar 15 million turist va 5 milliard dollar daromad SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) tamoyili asosida belgilanishi kerak;

– barqarorlikni ta’minlash – Iqtisodiy foyda ekologik va ijtimoiy zarar bilan birga kelmasligini nazorat qilish;

– hisobdorlik va shaffoflik – Davlat organlari, investorlar va jamoatchilik oldida ochiqlik;

– doimiy takomillashtirish va xatarlarni boshqarish – COVID-19 dan keyin sog‘liqni saqlash indikatorlari qo‘shilgani kabi, hozirda iqlim o‘zgarishi va ortiqcha yuklama indikatorlarini kuchaytirish lozim.

O‘zbekistonda “Turizm to‘g‘risida”gi Qonun va tegishli farmonlar monitoringni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Hozirgi vaqtda asosan iqtisodiy ko‘rsatkichlar kuzatilmoqda, ammo TSA ya’ni Tourism Satellite Account hisoblari to‘liq joriy etilmagan, ekologik va ijtimoiy indikatorlar tizimli emas.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy turizmni boshqarishda oddiy statistik hisobotlar yetarli emas – asosiy urg‘u real vaqt monitoringi, barqarorlik va sifat ko‘rsatkichlariga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan, UNTourism tomonidan yo‘lga qo‘yilgan International Network of Sustainable Tourism Observatories (INSTO) tarmog‘i muhim model hisoblanadi. Ushbu tizim 40 dan ortiq hududda turizmni 11 ta yo‘nalish bo‘yicha muntazam kuzatadi. Bunda faqat turistlar soni emas, balki ularning sarf-xarajatlari, mahalliy aholiga ta’siri, ekologik yuklama, suv va energiya iste’moli kabi ko‘rsatkichlar ham hisobga olinadi. Eng muhim jihati shundaki, bu ma’lumotlar qaror qabul qilish jarayoniga bevosita integratsiya qilinadi, ya’ni turizm siyosati statistikaga emas, balki real holatga asoslanadi.

3-jadval

Turizm tizimidagi asosiy tafovutlar. Xalqaro model va O‘zbekiston amaliyoti taqqoslanishi

Yo‘nalish	Xalqaro model	O‘zbekiston holati
Monitoring	Real-time, integratsiyalashgan	Fragmentar, kechikkan
Indikatorlar	100+ GSTC	Cheklangan
Yuklama boshqaruvi	AI, sensorlar	Deyarli yo‘q
TSA	To‘liq ishlaydi	Qisman
Daromad sifati	High-value tourism	Low speed per tourist

Ushbu jadval turizm sohasida ikki xil yondashuv – rivojlangan xalqaro tizim va O‘zbekiston amaliyoti o‘rtasidagi strukturaviy farqlarni ko‘rsatadi. Undagi har bir band aslida tizimning qanchalik zamonaviy va samarali ishlashini aks ettiradi.

Asosiy muammolar:

– ma’lumotlarning to‘liqsizligi va idoralararo koordinatsiya yetishmovchiligi;

– ekologik va ijtimoiy indikatorlarning zaifligi;

– raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi;

– kadrlar malakasining pastligi.

Takliflar:

- Milliy Turizm Monitoring va Baholash Markazini tashkil etish;
- UN Tourism va GSTC standartlariga to‘liq mos milliy indikatorlar to‘plamini ishlab chiqish va qonuniy mustahkamlash;
- yagona raqamli platforma yaratish ya’ni real vaqt rejimida big data, AI va mobil ilovalar integratsiya qilish;
- Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysida mintaqaviy turizm laboratoriyalarini tashkil etish;
- so‘rovlar, TSA va sun‘iy yo‘ldosh monitoringini kengaytirish;
- oliy ta‘lim dasturlariga monitoring va baholash modullarini kiritish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Milliy turizm sanoatini rivojlantirish jarayonida monitoring va baholash indikatorlari oddiy statistik vosita emas, balki butun tizimni ilmiy asosda boshqarishga xizmat qiladigan strategik mexanizm hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkinki, 2025-yilda qayd etilgan yuqori o‘sish sur‘atlari mamlakatning turizm salohiyati nihoyatda katta ekanini yana bir bor isbotladi. Biroq bu natijalar uzoq muddatli barqaror rivojlanishni avtomatik tarzda kafolatlamaydi. Aksincha, aynan shu bosqichda tizimli yondashuvni kuchaytirish, ya’ni indikatorlar bazasini kengaytirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va real vaqt rejimida ishlaydigan monitoring tizimini joriy etish zarur bo‘ladi.

Shu ma’noda, turizmni faqat son jihatdan oshirish emas, balki uning sifat ko‘rsatkichlarini ham chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar yagona milliy platforma asosida raqamli boshqaruv tizimi shakllantirilsa, turizm oqimini samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va hududlar o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash imkoniyati kengayadi. Natijada mamlakat turizmi bosqichma-bosqich oddiy kvantitativ o‘sish modelidan chiqib, yuqori qiymat yaratuvchi, inklyuziv va ekologik jihatdan barqaror tizimga aylanishi mumkin.

Bunday yondashuvning ahamiyati shundaki, u nafaqat iqtisodiy daromadlarni oshiradi, balki milliy madaniy merosni asrash, tarixiy obidalarni kelajak avlodlarga yetkazish, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilash va mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Demak, turizmni rivojlantirishda asosiy e’tibor faqat natijaga emas, balki uni qanday boshqarishga qaratilishi lozim, chunki aynan samarali boshqaruv uzoq muddatli muvaffaqiyatning eng muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNTourism. International Network of Sustainable Tourism Observatories (INSTO) [Elektron resurs]. – Madrid, 2024. – Kirish rejimi: <https://www.unwto.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).
2. UNTourism. Guidebook on Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations. – Madrid: UNWTO, 2004. – 507 p.
3. Global Sustainable Tourism Council. GSTC Destination Criteria [Elektron resurs]. – 2023. – Kirish rejimi: <https://www.gstcouncil.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).
4. OECD. Measuring and Monitoring the Sustainability of Tourism at Regional

Level [Elektron resurs]. – Paris, 2024. – Kirish rejimi: <https://www.oecd.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

5. UNTourism. Tourism Data Dashboard [Elektron resurs]. – 2024. – Kirish rejimi: <https://www.unwto.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

6. World Leisure Organization. Monitoring Sustainability in Tourism: INSTO Framework [Elektron resurs]. – 2020. – Kirish rejimi: <https://www.worldleisure.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

7. Alcalá-Ordóñez A. va boshqalar. Tourism Economic Indicators and Destination Management Framework // Management Review Quarterly. – 2026.

8. UNTourism Dashboard: Monitoring Global Tourism Recovery [Elektron resurs]. – 2024. – Kirish rejimi: <https://www.unwto.org> (murojaat sanasi: 22.04.2026).

Saydullo YULDASHEV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti,
Ilmiy rahbar: Nilufar BATIROVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi dotsenti, PhD

INSON KAPITALI VA “YUMSHOQ KUCH” OMILI ORQALI TURISTIK JOZIBADORLIKNI OSHIRISH: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘nggi yillarda Dog‘istonda kuzatilayotgan turizmning keskin o‘shish sur‘atlari, buning omillari hamda Xabib Nurmagomedov va jamoasining shaxsiy brendi orqali Dog‘istonda sport, ekologik hamda ziyorat turizmining rivojiga qo‘shayotgan o‘rni haqida to‘xtalib o‘tiladi. O‘zbekiston va Dog‘iston o‘rtasidagi tarixiy va madaniy o‘xshashliklar, turistik resursalar tahlil qilinib, Dog‘iston tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: turistik bum, yumshoq kuch, role model, turizm elchisi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются высокие темпы роста туризма в Дагестане, наблюдаемые в последние годы, а также факторы, способствующие этому процессу. Особое внимание уделяется роли личного бренда Хабиба Нурмагомедова и его команды в развитии спортивного, экологического и паломнического туризма в Дагестане. Анализируются исторические и культурные сходства между Узбекистаном и Дагестаном, а также туристические ресурсы двух регионов. На основе исследования предлагаются рекомендации по применению опыта Дагестана в развитии туризма в Узбекистане.

Ключевые слова: туристический бум, мягкая сила, ролевая модель, посол туризма.

Abstract. This article discusses the rapid growth of tourism in Dagestan in recent years, the factors behind it, and the role of Khabib Nurmagomedov and his team in the development of sports, ecological, and pilgrimage tourism in Dagestan through their personal brand. It analyzes the historical and cultural similarities and tourism resources between Uzbekistan and Dagestan, and offers recommendations for applying the experience of Dagestan to Uzbekistan.

Keywords: touristic boom, soft power, role model, tourism ambassador.

Bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining eng barqaror rivojlanib